

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**JISMONIY TARBIYA FANIDAN KASBIY SERTIFIKATLASH
TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

JISMONIY TARBIYA FANIDAN KASBIY SERTIFIKATLASH TEST TOPSHIRIQLARI

SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentiga muvofiq ishlab chiqildi. Hujjat jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholash uchun qo‘llaniladigan test sinovlarining mazmuni, tuzilmasi va baholash mezonlarini belgilaydi.

Spetsifikatsiya test topshiriqlarining mazmuni, tuzilmasi, baholash mezonlari, test topshiriqlarining shakli, kognitiv darajalari hamda baholash jarayonini tashkil etish tartibini belgilab beradi.

Mazkur hujjat test topshiriqlarini ishlab chiqishda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi hamda baholash jarayonining shaffofligi, adolatliligi va ilmiy asoslanganligini ta’minlashga qaratilgan.

I. Umumiy tamoyillar

Baholashning asosiy maqsadi jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining fan bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, amaliy faoliyatni tashkil etish kompetensiyasi, jismoniy tarbiya fanini o‘qitish metodikasi bo‘yicha bilimlari, pedagogik mahorati va kasbiy kompetensiyalarini kompleks baholashdan iborat. Baholash natijalari pedagog kadrlarni kasbiy sertifikatlash jarayonida qaror qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-fevraldagi “Davlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 87-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2026-yil 3-iyuldagi “Davlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash nazorat sinovini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 233-son buyrug‘i.

III. Baholash qamrovi

Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari uchun mutaxassislik fanidan 40 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, jami 50 ta test topshirig‘i taqdim etiladi va umumiy

test topshirig'ini bajarish uchun ajratilgan vaqt 90 daqiqa etib belgilanadi. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan (Y1), moslashtirishni talab qiladigan (Y2) va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari (Y3)*) foydalaniladi. Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan.

IV. Test tuzilmasi

Test sinovi jismoniy tarbiya fanining asosiy mazmun yo'nalishlarini qamrab oladi. Xususan, test topshiriqlari gimnastika, harakatli o'yinlar, yengil atletika, kurash, suzish, sport o'yinlari turlari, sport inshootlari, jismoniy tarbiya fanini o'qitish metodikasi va pedagogik mahoratga oid bilim hamda ko'nikmalarni baholashga qaratilgan. Test topshiriqlarining mazmuni umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari, amaldagi o'quv dasturlari hamda fan bo'yicha metodik talablar asosida shakllantiriladi.

Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. Gimnastika turlari va qoidalari		
Gimnastika turlari va qoidalari	– gimnastikaning asosiy turlarini bilish; – gimnastikaning asosiy turlarini farqlash; – mashqlarni metodik jihatdan qo'llash; – texnikadagi xatolarni tahlil qilish; – qoidalardagi xatolarni tahlil qilish; – yangi mashqlar kombinatsiyalarini yaratish; – mashqlarning samaradorligini baholash.	7
2. Harakatli o'yinlar		
Harakatli o'yinlar	– harakatli o'yinlar va ularni tavsiflash; – harakatli o'yinlar turlarini bilish; – o'yinlarning yosh va tayyorgarlik darajasiga mosligini tushunish; – o'yinlarni dars jarayonida qo'llash; – jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi o'yinlar rolini tahlil qilish.	5
3. Yengil atletika turlari va qoidalari		

Yengil atletika turlari va qoidalari	– yengil atletika turlarini bilish; – yengil atletika turlarini farqlash; – musobaqa qoidalarini bilish; – musobaqa qoidalarini farqlash; – musobaqa qoidalariga muvofiq qo'llash – texnika bo'yicha xatolarni tahlil qilish; – taktika bo'yicha xatolarni tahlil qilish;	7
4. Kurash turlari va qoidalari		
Kurash turlari va qoidalari	– kurash turlari va qoidalarini bilish; – texnika va taktik usullarni tushunish; – amaliy mashg'ulotlarda qo'llash; – raqib harakatlarini tahlil qilish.	3
5. Suzish turlari va qoidalari		
Suzish turlari va qoidalari	– suzish turlarini bilish va farqlash; – harakat texnikasini tushunish; – texnika va natijalarni tahlil qilish.	1
6. Sport o'yinlari turlari va o'yin qoidalari		
Sport o'yinlari turlari va qoidalari	– futbol o'yinlari turlari va qoidalarini bilish; – voleybol o'yinlari turlari va qoidalarini bilish; – basketbol o'yinlari turlari va qoidalarini bilish; – gandbol o'yinlari turlari va qoidalarini bilish; – shaxmat-shashka o'yinlari turlari va qoidalarini bilish; – sport o'yinlari turlarini bilish; – sport o'yinlari turlarini farqlash; – texnik va taktik jihatlarini tushunish; – texnika va taktikani o'yin davomida samarali qo'llash; – jamoa strategiyasini tahlil qilish; – yangi o'yin taktikasi yoki strategiyasini ishlab chiqish va natijalarni baholash; – musobaqa qoidalariga muvofiq qo'llash; – texnika va taktika bo'yicha xatolarni tahlil qilish; – hakamlik ko'nikmalari va adolatli baholay olish.	12
7. Sport inshootlari		
Sport inshootlari	– sport inshootlari turlarini bilish va farqlash; – foydalanish qoidalarini tushunish; – amaliy mashg'ulotlarda qo'llash; – mavjud sharoitni tahlil qilish; – inshootdan xavfsiz foydalana olish, texnika xavfsizligini ta'minlay olish.	5 ta

Jami	40 ta
------	-------

Pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

2-jadval

1. PEDAGOGIK MAHORAT		10 ta
1.1. Pedagogik mahorat	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asosiy tushunchalari va kategoriyalari, pedagogik yondashuvlar va ta'lim paradigmalari (an'anaviy - konservativ, ratsionalistik (bixevioristik), fenomenologik (gumanistik), texnokratik va ezoterik)ni bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogikaning tamoyillari (onglilik va faollik, ko'rgazmalilik, tizimlilik va muntazamlilik, ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi va boshqalar)ni bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – tarbiya va uning turlarini bilish, bir-biridan farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – dars va uning turlari(yangi bilim berish darsi, mustahkamlash darsi, takrorlash va umumlashtirish darsi, –nazorat (tekshirish) darsi, aralash dars; ma'ruza darsi, suhbat darsi, amaliy dars, laboratoriya darsi, mustaqil ish darsi; an'anaviy dars, noan'anaviy dars va boshqalar)ni bilish, darsni rejalashtirish, tashkil etish va sinfni boshqarish yondashuvlarini konkret vaziyatlarda qo'llay olish, ta'lim jarayonini loyihalashtirish va boshqarish, muammoli vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish, faoliyatini monitoring qilish; – sinf rahbarining huquq va majburiyatlarini bilish, sinf hujjatlari bilan ishlay olish, ularni yuritishda to'g'ri ketma-ketlikka amal qilish, sinf jamoasini to'g'ri shakllantirish, muloqotda pedagogik etika qoidalariga amal qilish, ota-onalar bilan hamkorlikning samarali shakllarini tanlash, muammoli vaziyatda eng maqbul strategik yondashuvni qo'llash; – pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o'sish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish;	10

	– pedagogik qobiliyat va uning turlari (didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, perseptiv-pedagogik qobiliyat, nutq madaniyati, baholash madaniyati, texnologik madaniyat, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ qobiliyat, avtoritar qobiliyat va boshqalar)ni bilish va konkret vaziyatlarda qo‘llay olish, – ta’lim texnologiyalari (loyihaga asoslangan ta’lim, muammoli ta’lim, hamkorlikdagi ta’lim, evristik ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interfaol ta’lim, differensial ta’lim, integral ta’lim, o‘yinli ta’lim, inklyuziv ta’lim va boshqalar)ni bilish va vaziyatlarga mosini tanlay olish; – fan mazmun sohasini o‘qitish yondashuvlari, metodikasi va texnologiyalarini bilish; – fan sohasini o‘qitish usullari va metodlarini farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlash; – fan sohasini o‘qitish bo‘yicha berilgan ta’limiy vaziyatga oid qabul qilingan qarorlarga baho berish.	
--	---	--

Kognitiv ko‘nikmalar taqsimoti

3-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo‘llanilishini tushunish	22
2	Qo‘llash	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo‘llay olish	23
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	5

V. Baholash mezonl

Test topshiruvchining umumiy natijasi har bir test topshirig'iga berilgan ballar yig'indisi asosida aniqlanadi. Har bir to'g'ri javob uchun **2 ball**, noto'g'ri javob uchun **ball** berilmaydi. Test sinovining eng yuqori natijasi 100 ballni tashkil etadi.

VI. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VII. Jismoniy tarbiya fanidan tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. “Milliy va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanma, Sh.S.Mirzanov, “Makon savdo print” nashriyoti, 2024-yil
2. “Sport inshootlari” darslik, B.B.Musayev, “O‘zkitob savdo nashriyoti matbaa ijodiy uyi” nashriyoti, Toshkent, 2021-yil
3. “Gimnastikani o‘qitish metodikasi” darslik, M.N.Umarov, X.X.Umarov “Evrika nashriyot – matbaa uyi” MChJ nashriyoti, Toshkent, 2025-yil
4. “Yengil atletikani o‘rgatish metodikasi” darslik, I.R.Soliyev, I.D.Ganiboyev, K.F.Ruzamuxamedov “O‘zDJTSU, Chirchiq, 2023-yil
5. “Suzishni o‘rgatish metodikasi” darslik, F.M.Muminov, I.S.Islamov, “O‘zkitobsavdonashriyoti” NMIU nashriyoti, Toshkent, 2023-yil
6. “Kurash va uni o‘qitish uslubi” o‘quv qo‘llanma, J.Axmedov, “Umid design” nashriyoti, Toshkent, 2021-yil
7. “Voleybolni o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanma, A.A.Pulatov, “O‘zkitobnashriyoti” NMIU, Toshkent-2023-yil
8. “Sport va harakatli o‘yinlar (Gandbol)” Sh.F.To‘laganov, M.M.Raxmanova, R.R.Kariyeva “O‘zkitobnashriyoti” NMIU, Toshkent-2020-yil
9. “Sport turlarini o‘rgatish metodikasi (Basketbol)” o‘quv qo‘llanma, M.A.Umbetova “O‘zkitobnashriyoti” NMIU, Toshkent-2023-yil
10. “Umumta’lim maktablarida futbol” o‘quv qo‘llanma, Y.Y.Aripov, N.M.Atamuxamedova, O.R.Igamberdiyev “Behzodbek print”, Toshkent-2023-yil
11. “Shaxmat” o‘quv-metodik qo‘llanma, B.A.Maxmudov, “Zebo prints” nashriyoti, Toshkent-2021-yil

Pedagogik mahorat bo‘yicha manbalar

1. Mavlonova R.A., Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – 528 b.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: “Bayoz” nashriyoti, 2025. – 504 b.
3. Tolipov O‘., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Innavatsiya-ziyo” nashriyoti, 2019. – 276 b.
4. Sh. Abdiraimov v.b. Ta’limda baholash va monitoring asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, TDYU nashriyoti, 2026. – 208 bet.

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Sinovga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.